

O'ZBEK TILI FALSAFIY TERMINLARINING TUZILISHIGA KO'RA TAVSIFI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10065534>

Karimov Kamoldin Nasriddinovich

Andijon davlat chet tillari instituti, Ingliz tili nazariy aspektlari kafedrasи

e-mail: king230680@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zbek tilidagi falsafiy terminlarning tuzilishiga ko'ra tavsifi haqida so'z yuritilgan. O'zbek tilidagi falsafiy terminlarning shakliy-struktur tasnifi orqali ularning shakllanishi, hosil bo'lishi va semantik tarkibi haqida nazariy xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar

qo'shma terminlar, juft terminlar, qisqartma terminlar, leksema

Terminlar lingvistik nuqtai nazardan o'rGANilib, tahlil qilinganda ularning shakliy-struktur xususiyatlari ham tadqiq etilgan. Terminlarning shakliy-struktur tasnifi orqali ularning shakllanishi, hosil bo'lishi va semantik tarkibi haqida nazariy xulosalarga kelish mumkin.

O'zbek terminologiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda sohaviy terminlarning birdan ortiq asosdan tashkil topgan birliklariga qo'shma, juft, murakkab, tarkibli, birikmali, birikma terminlari qo'llangan.

R.Doniyorov birdan ortiq leksik uzvdan tashkil topgan terminlarga sintaktik yo'l bilan hosil bo'lgan termin sifatida qaraydi. Olimning fikricha, o'zbek tilining texnik terminologiyasida yakka so'zli terminlarga nisbatan sintaktik usul bilan hosil bo'lgan terminlar salmoqli o'rinni egallaydi. Buning sababi shundaki, sintaktik usul bilan yasalgan terminlar, barcha tillarda bo'lganidek, o'zbek tilida ham muhim nominativ manba sanaladi. [1.148]

Tadqiqotchi M.Ahatova yog'ochsozlikka doir leksemalarni o'rGANib, bunday terminlarning sof semantik, semantik-sintaktik usullar bilan yasalganligini misollar asosida izohlaydi. Yog'ochsozlikka oid birikma terminlar ot+ot hamda sifat+ot shaklida hosil bo'lishini ta'kidlaydi. [2.24]

N.Qosimov birdan ortiq komponentli ilmiy-texnik terminlarni qo'shma, juft va gibrid kabi turlarga ajratgan. [3.47]

T.Valiyevning "O'zbek tili yo'lsozlik terminlarining struktur-semantik xususiyatlari va leksikografik talqini" deb nomlangan dissertatsiyasida yo'lsozlik

terminlari struktur jihatdan quyidagi guruhlarga ajratiladi: 1) sodda terminlar; 2) qo'shma terminlar; 3) juft terminlar; 4) birikma terminlar; 5) qisqartma terminlar.[4.55]

E.Sobirova terminlar tor qatlam uchun xos bo'lgan birlik ekanligi va ko'p hollarda birikmali shaklda mavjudligi bois huquqiy terminlarning struktur xususiyatlarini tadqiq qilishda umumiyl holda quyidagi guruhlarga ajratishni tavsiya etadi: 1) sodda; 2) qo'shma; 3) juft; 4) birikma.[5.45]

O'zbek terminosistemida mavjud falsafaga oid sodda terminlarni yasalishiga ko'ra quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin: sodda tub terminlar; sodda yasama so'z shaklidagi terminlar.

5 tomli O'TILda sodda tub terminlarga quyidagilarni kiritish mumkin: atribut, bazis, baqo, vaqt, vahdat, zamon, ziddiyat, idrok, illyuziya, kategoriya, mazmun, makon, materiya, miqdor, munosabat, nisbiy, ob'yekt, ong, ruh, sabab, sifat, sxolast, tasodif, turmush, qonun, harakat, haqiqat.

E'tibor berilsa, falsafiy tub sodda terminlar ichida fe'lning vazifa shakllarini olib kelgan leksemalar mavjud. Masalan, sakrash, saqlanish. Mazkur leksemalar falsafiy terminologik xarakter kasb etgan:

SAKRASH 1 Sakramoq fl. har. n. Bir oyoqlab sakrash. U devordan bir sakrashda oshib tushdi-yu, kuchining boricha oldinga intildi. S. Anorboyev, Oqsoy. 2 Ma'lum bir sport turida mustaqil mashq. Parashyutda sakrash. Balandlikka sakrash. Uzunlikka sakrash. 3 fls. Miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tish jarayoni. [6.456]

Mavjud izohlardan anglashiladiki, bu leksema sakra+sh shaklida oxirgi ma'nosi bilan (miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tish jarayoni) terminologik ma'no ifodalagan.

SAQLANISH 1 Saqlanmoq fl. har. n. Materianing saqlanish qonuni (fls). 2 O'z-o'zini himoya qilish; muhofaza, himoya qilish. Atom radiatsiyasining ta'siridan saqlanish. Yong'indan saqlanish qoidalari. Inson turli zararli kasalliliklardan, yuqumli dardlardan saqlanishi kerak. Gazetadan.[6.500]

Bu leksema saqlan+ish shaklida materianing saqlanish qonuni ma'nosi bilan falsafiy termin sifatida baholangan.

Falsafiy sodda yasama terminlar O'TILda salmoqli o'rinn egallaydi. Bunday terminlar morfologik usul bilan hosil qilingan.

Quyidagi affikslar yordamida sodda yasama falsafiy terminlar yasalgan:

1) -anti: antitezis

ANTITEZIS fls, mnt. Tezisga qarshi qo'yilgan hukm, muhokama, fikr; qarama-qarshi tezis.[7.103]

2) -lamchi: birlamchi, ikkilamchi

BIRLAMCHI 1 s.t. Birinchi. Uni sevgani bihan qovushtiramiz. Birlamchi shartim shu! K.Yashin, Hamza. 2 Biron hodisa jarayonida birinchi o'rinn tutgan: asosiy, birinchi. Materiya birlam-chidir (fls). Ot turkumiga oid so'zlarda leksema birlamchi nutqiy negiz holatida bo'ladi. "O'TA". Birlamchi kosmik nurlar yer atmosferasi orqali o'tayotganida, o'z energiyasini juda tez sarflaydi. Gazetadan.[6.330]

3) -lik (-liq): borliq, go'zallik, yo'qlik, xususiylik

BORLIQ 1 fls. Inson ongi va sezgisidan tashqaridagi ob'yektiv dunyo, olam, mavjudot. Ahmad ko'chaga chiqdi. Kun issiq, borliq lov-lov yonardi. F.Musajonov, Himmat. ...cho'1 ham, butun borliq ham noz uyquda yotgandek. "O'zbekiston qo'riqlari". Intilar borliqni inson Barkamol etmoq uchun, He ajab, insonni borliq Barkamol etgan emas. E. Vohidov, Muhabbat.

2 Kishining vujudi, jismi, turish-turmushi. Borlig'im muhabbatingiz alangasi bilan tutashgani holda zavjangiz Otabek. A.Qodiriy, O'tgan kunlar. Og'riq uning butun borlig'ini chulg'ardi. "Yoshlik". Daryo yoqasida o'tirib, butun borlig'i bilan qo'shiq aytayotgan qizga ko'zim tushdi. "Sharq yulduzi". Borlig'idan sovuq ter quyilib ketdi. X.To'xtaboyev, Shirin qovunlar mamlakati.

3 Barcha, hamma, butun. O'zbek oyim o'g'lining "o'lganning ustiga chiqib tepish" qabilidan bo'lgan bu harakatidan tutuni ko'kka chiqib, borliq qahr-g'azabini eri ustiga to'kadi. A.Qodiriy, O'tgan kunlar.[8.376]

4) -izm: idealizm, materializm, ob'yektivizm, sensualizm

MATERIALIZM [fr. materialis - moddiy] 1 fls. Idealizmga qarama-qarshi o'laroq, materianing, ob'yektiv borliqning birlamchiligin, uning kishilar irodasi, ruhi, ongiga bog'liq bo'lмаган holda mavjudligini, ruh, ongning esa ikkilamchiligin, ob'yektiv borliq va uning qonuniyatlarini bilish mumkinligini ta'kidlashga asoslangan falsafiy yo'nalish, oqim.

2 s. t. Borliqqa, hayotga real, moddiy nuqtai nazardan yondashish.[6.650]

5) ir-: irratsional

IRRATIONAL [lot. irrationalis - noma'qul; o'ylamasdan qilingan] 1 fls. Qonuniyatga ega bo'lмаган va shu sababli tushunib, akd bilan bilib, mantiqiy yo'l bilan tushuntirib bo'lmaydigan; aqdan tashqari. Irratsional qarash.

2 mat. Butun son bilan o'lchab, ifodalab yoki hisoblab bo'lmaydigan; arifmetik amaldan tashqari, ildiz topish amalini ham talab qiladigan. Irratsional tenglama. Irratsional sonlar.[6.263]

6) -ist: materialist

MATERIALIST 1 fls. Materializm tarafdori, materializm yo'lidan boruvchi kishi. Har qancha materialist bo'lsam ham, ilhom holatining sehrli ekaniga ishongim keladi. U.Normatov, Talant tarbiyasi. [6.650]

7) -iv: ob'yektiv, sub'yektiv

OB'YEKTIV II 1 fls. Ongdan tashqarida bo'lgan va ongga bevosita bog'liq bo'lmanan. Tabiatning ob'yektiv qonuniyati. Ob'yektiv borliq (reallik).

2 Yanglish yoki sub'yektiv fikrdan xoli bo'lgan; xolis, xolisona, betarafona. Ob'yektiv baho, Ob'yektiv xulosa. Masalaga ob'yektiv yondashmoq. Bizga shikoyat yo'llashgan ekan, bu faktga ob'yektiv qarashimiz kerak! "Yoshlik". [6.384]

8) -izm: ratsionalizm, realizm, relyativizm, sub'yektivizm

RATSIONALIZM [fr. rationalisme < lot. rationalis – aqlga, aql-idrokka asoslangan] fls. Aqlni haqiqiy bilishning asosiy, hal qiluvchi manbai deb hisoblovchi falsafiy yo'naliш.[6.81]

Sub'yektivizm termini tarkibida ikkita so'z yasovchi affiks mavjud. Sub'yekt – asos, ya'ni yetakchi morfema, -iv hamda -izm affiks hisoblanadi. Bu terminda yasashga asos qism sub'yektiv. Shuning uchun mazkur so'zda oxirgi qo'shimcha inobatga olindi.

SUB'YEKTIVIZM 1 ayn. sub'yektiv idealizm q. sub'yektiv.

2 fls. Narsa va hodisalarining mavjudligi va o'zgarib borishini qonuniyatlar asosida emas, balki sub'yekt faoliyatiga bog'lab tushuntiruvchi idealistik ta'limot.

3 Sub'yektiv qarash, masalaga bir tomonlama, o'z shaxsiy fikri, mulohazalari nuqtai nazaridan yondashish. Hayot hodisalari talqinida avtorning haroratlari "sub'yektivizmi" lirik, hissiy stixiyadan oziq oladi. "O'TA". [6.619]

9) -iy: sababiy

SABABIY [sababli, sabab bilan bo'ladigan] fls. Sababiyatga asoslangan; sababli. Sababiy bog'lanish. [6.437]

10) -iyat: sababiyat

SABABIYAT [bog'liqlik, aloqadorlik] fls. Hodisalarining tabiiy, ijtimoiy, ob'yektiv o'zaro aloqasini, bog'lanishini bildiradigan kategoriya. Sababiyat qonuni.[6.437]

11) - ika: sofistika

SOFISTIKA [yun. sophistike - munozarani ayyorlik bilan olib borish, uning yo'naliшini o'zgartirib yuborish mahorati] fls. Mantiq qonunlarini atayin buzib, yolg'on dalillarga asoslangan holda muhokama yuritish.[6.597]

N.Qosimov qo'shma terminlarning bir ko'rinishi sifatida gibrid terminlarni ham ajratgan. Uning fikricha, "gibrid terminlar o'zbek ilmiy-texnikaviy terminologiyasida keyingi yillarda paydo bo'lgan yangi tipdagi qo'shma terminlar.

Gibrid so'zi keng ma'noda "turli til elementlaridan tuzilgan "duragay" so'zlar. Masalan, fizikadagi kvazizarralar termini gibrid so'z, u lotincha quasi (soxta, yolg'on) so'z formasi hamda o'zbek tilidagi zarra so'zining qo'shilishidan yasalgan.[3.47]

T.Valiyevning fikricha, mazkur gibrid terminlarning ikkinchi komponentlarining barchasi ham, albatta, o'zbekcha so'zlar emas. Masalan, sanoat, surat, zarra kabi so'zlar o'zlashma qatlam birliklari. Ikkinci uzvi o'zbekcha so'zlardan tashkil topgan gibrid terminlar yo'lsozlik terminosistemasida ham ko'p. Masalan, yo'lsozlik, avtoharakat, avtohalokat kabilar.[4.53]

Falsafiy terminlar ichida ham gibrid xarakterli terminlar mavjud bo'lib, ularning ikkala komponenti ham o'zbekcha qatlamga mansub emas. Jumladan:

PANTEIZM [pan.. + yun. theos – xudo] din. fls. Xudo tabiat bilan bir narsa, ular bir butunni tashkil qiladi, deb qaraydigan diniy-falsafiy ta'limot. Panteizm va deizm o'rta asr sharoitida ilg'or falsafiy g'oyalarni olg'a surishning eng muhim shakli edi. "Guliston". [8.229]

EMPIRIOKRITITSIZM [yun. empei-ria – tajriba + kritike (techne) – tanqidiy muhokama qilish san'ati] fls. Falsafada 19-asr oxirida paydo bo'lган, moddiy dunyoning ob'yektivligini inkor etib, materiyani ongning mahsuli deb qaraydigan sub'yektiv-idealistik oqim.[9.38]

Ko'rindiki, mazkur terminlar ikki komponentdan tashkil topgan bo'lib, o'zlashma qatlamga mansub.

O'zbek tilining falsafiy terminlari, asosan, sodda tuzilishga ega. Sodda tub va sodda yasama terminlar salmoqli o'rinn egallaydi. Kam miqdorda bo'lsa-da, gibrid terminlar ham mavjud. Tadqiqot davomida O'TILda juft, murakkab, tarkibli, birikmali terminlar umuman uchramadi. Bu falsafiy terminlarning aksariyati o'zlashma qatlamga mansubligi bilan bog'liq. Ammo falsafiy lug'atlarda birikmali terminlar mavjud. Jumladan, ekzistensial omillar (inson mavjudligi omillari), ezoterik matnlar (diniy marosimlar, mistik ta'limotlar va sehrli formulalar bilan bog'liq bo'lган faqat tashabbuskorlar uchun mo'ljallangan maxfiy, yashirin matnlar), ijtimoiy falsafa (jamiyatning o'ziga xos xususiyatlarini, uning dinamikasi va istiqbollarini, ijtimoiy jarayonlar mantiqini, insoniyat tarixining mazmuni va maqsadini tavsiylovchi bo'lim), spontan materializm (tashqi dunyoning ob'yektiv haqiqatiga ongsiz, shakllanmagan, falsafiy ongsiz ishonch), o'z-o'zini anglash (shaxsning o'zini shaxs sifatida va amaliy va kognitiv faoliyat sub'yekti sifatida anglashi va baholashi), ob'yektiv haqiqat (dunyoda mavjud bo'lган barcha ob'yektlar va tizimlarning cheksiz to'plami, har qanday xususiyatlar, aloqalar, munosabatlar va harakat shakllarining asosi). [10.944]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. – Тошкент: Фан, 1977.
2. Аҳатова М. Ўзбек тили ёғочсозлик терминологияси. Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Т., 2004.
3. Қосимов Н. Ўзбек тили илмий-техникавий терминологияси масалалари (Сўз ўзлаштириш ва аффиксация масалалари). – Тошкент: Фан, 1985.
4. Валиев Т.Қ. Ўзбек тили йўлсозлик терминларининг структур-семантик хусусиятлари ва лексикографик талқини: филол. фан. бўйича фалс. докт. ... дисс. – Самарқанд, 2018.
5. Собирова Э. “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да ҳукукий терминларнинг берилиши: Филол.фан.бўй.фал.док-ри (PhD) дисс... – Тошкент, 2022.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдги. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. 3-жилд.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдги. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. 1-жилд.
8. Курбанов М. А. Таржимада новербал воситаларни тушуниб етиш муаммолари //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. 4. – С. 227-235.
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдги. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. 5-жилд.
10. Ожегов С. И., Шведова Н. Ю. Толковый словарь русского языка / Российская академия наук. Институт русского языка имени В. В. Виноградова. – 4-е изд., доп. – М.: Азбуковник, 1997.
11. Kurbanov M. A., Kurbanov E., Kurbanova S. THE ROLE OF LINGUISTICS (PARALINGUISTICS) IN THE DEVELOPMENT OF THE COUNTRY'S ECONOMY //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 11. – С. 8-10.